



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19696244>

8–9-sinf o‘quvchilarida milliy hunarmandchilik asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari

Abdullayeva Komila Tursunovna –
NTM Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasida dotsenti,
E-mail: komilaabdullayeva374@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-1761-1579>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8–9-sinf o‘quvchilarida milliy hunarmandchilik faoliyati orqali tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari keng tahlil qilinadi. Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan o‘qitish hamda loyiha metodlari integratsiyasi doirasida olib borilgan. Maqolada o‘quvchilarning iqtisodiy tafakkuri, kreativ fikrlashi, tashabbuskorligi va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, pedagogik sharoitlar, didaktik model, baholash mezonlari hamda iqtisodiy hisob-kitob formulalari tizimli tarzda yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik kompetensiyasi, milliy hunarmandchilik, kompetensiyaviy ta’lim, kreativ fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, iqtisodiy savodxonlik, pedagogik mexanizm, soft skills.*

Педагогические механизмы формирования предпринимательских компетенций у учащихся 8–9 классов на основе национального ремесленничества

***Аннотация.** В данной статье представлен всесторонний анализ педагогических основ формирования предпринимательских компетенций у учащихся 8–9 классов общеобразовательных средних школ посредством народных ремесел. Исследование проводилось в рамках интеграции компетентностного подхода, личностно-ориентированного образования, практического обучения и проектной методики. В статье приводится теоретическое и практическое обоснование механизмов развития у учащихся экономического мышления,*

творческого мышления, инициативности и навыков принятия решений в проблемных ситуациях. Также систематически рассматриваются педагогические условия, дидактические модели, критерии оценки и формулы экономического расчета.

Ключевые слова: предпринимательская компетентность, национальные ремесла, компетентностно-ориентированное образование, креативное мышление, проектное обучение, экономическая грамотность, педагогический механизм, мягкие навыки.

Pedagogical mechanisms for developing entrepreneurial competencies in 8th–9th grade students based on national handicrafts

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the pedagogical foundations of the formation of entrepreneurial competencies in students of grades 8–9 of general secondary schools through national crafts. The research was conducted within the framework of the integration of a competency-based approach, person-centered education, activity-based learning, and project methods. The article provides theoretical and practical justification for the mechanisms for developing students' economic thinking, creative thinking, initiative, and decision-making skills in problem situations. It also systematically covers pedagogical conditions, didactic models, assessment criteria, and economic calculation formulas.

Keywords: entrepreneurial competence, national crafts, competency-based education, creative thinking, project-based learning, economic literacy, pedagogical mechanism, soft skills.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining sifatiga bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun shaxsdan faqatgina akademik bilimlar emas, balki moslashuvchan fikrlash, tashabbus ko'rsatish, resurslarni boshqarish, risklarni baholash va innovatsion qarorlar qabul qilish kabi kompetensiyalar talab etiladi. Shu sababli ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi nafaqat metodik, balki strategik ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'limning 8–9-sinflari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida alohida bosqich hisoblanadi. Bu yosh davrida o'quvchilarda mustaqillik, o'zini namoyon qilish, ijtimoiy faollik, kasbiy qiziqishlar shakllana boshlaydi. Aynan shu davrda iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi.

Milliy hunarmandchilik esa o'zining pedagogik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari bilan ta'lim jarayonida noyob vosita sifatida namoyon bo'ladi. Hunarmandchilik faoliyati o'quvchining nafaqat qo'l mehnati ko'nikmalarini, balki estetik didini, kreativ fikrlashini, sabr-toqatini, iqtisodiy tushunchalarni anglashini rivojlantiradi. Shu bois milliy hunarmandchilik asosida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Muammoning ijtimoiy-pedagogik dolzarbligi: Ta'lim tizimida kuzatilayotgan ayrim tendensiyalar o'quvchilarning real hayotga tayyorgarligida muayyan bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, o'quvchilarning ko'pchiligi iqtisodiy tushunchalarni nazariy darajada bilsada, ularni amaliy vaziyatlarga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch

keladi. Shuningdek, mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, resurslarni samarali boshqarish kabi ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi.

An'anaviy ta'lim modeli asosan bilimlarni uzatishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning faoliyat tajribasi cheklangan holda qolmoqda. Holbuki, zamonaviy pedagogika bilimning haqiqiy o'zlashtirilishi uning faoliyat jarayonida qo'llanishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan milliy hunarmandchilik asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini integratsiyalash imkonini beradi.

Milliy hunarmandchilik faoliyati quyidagi muammolarni hal qilishda muhim resurs bo'la oladi:

- o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirish
- kreativ fikrlashni rivojlantirish
- kasbiy orientatsiyani kuchaytirish
- mehnat madaniyatini shakllantirish
- tadbirkorlik tafakkurini rivojlantirish

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadbirkorlik kompetensiyasining shakllanishi psixologik va pedagogik tadqiqotlarda ko'p qirrali jarayon sifatida qaraladi. David Kolb tomonidan ilgari surilgan tajribaviy o'qitish nazariyasiga ko'ra, bilim insonning bevosita tajribasi asosida shakllanadi. Hunarmandchilik faoliyati aynan tajriba, kuzatuv, refleksiya va amaliy qo'llash bosqichlarini o'z ichiga olgani sababli mazkur nazariyaga to'liq mos keladi.

Jean Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasida o'smirlik davrida abstrakt-logik tafakkur shakllanishini asoslaydi. Bu esa iqtisodiy tushunchalarni, biznes jarayonlarini anglash va modellashtirish uchun qulay psixologik zamin yaratadi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda XXI asr ko'nikmalari qatorida kreativlik, tashabbuskorlik va iqtisodiy savodxonlik alohida ta'kidlanadi. European Commission ning EntreComp modeli tadbirkorlik kompetensiyasini tizimli ravishda tavsiflab, ta'lim jarayonida uni shakllantirish mexanizmlarini belgilab beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadbirkorlik kompetensiyasi ko'p komponentli integrativ tuzilma bo'lib, u bilim, ko'nikma, motivatsiya va qadriyatlardan tarkib topadi.

$$TC = (B + K) \times M \times T$$

Bu yerda:

TC – tadbirkorlik kompetensiyasi

B – bilimlar (iqtisodiy, huquqiy, marketing)

K – ko'nikmalar (rejalashtirish, hisoblash, dizayn)

M – motivatsiya

T – tajriba (amaliy faoliyat)

Bu model shuni ko'rsatadiki, bilim va ko'nikmalar real faoliyat tajribasi bilan boyitilmaguncha kompetensiyaga aylanmaydi.

1-jadval.

Faoliyatga yo'naltirilgan metodlar

Metod	Maqsad	Natiija
Amaliy ish	Hunar ko'nikmasi	Mahsulot
Biznes o'yini	Iqtisodiy tafakkur	Qaror qabul qilish
Case-study	Muammo yechish	Tahlil qilish
Master-klass	Tajriba almashish	Motivatsiya

Integrativ model (STEAM + Hunarmandchilik)

Fan	Integratsiya shakli
Matematika	Xarajat va foyda hisoblash
Texnologiya	Mahsulot tayyorlash
Informatika	Reklama dizayni
Iqtisod	Biznes modeli

Milliy hunarmandchilikning rivojlantiruvchi salohiyati.

Milliy hunarmandchilik o‘quvchilar rivojiga ko‘p yo‘nalishda ta‘sir ko‘rsatadi. Avvalo, u o‘quvchining ijodiy tafakkurini faollashtiradi. Mahsulot yaratish jarayoni tasavvur, dizayn, rang tanlash, shakl yaratish kabi kreativ jarayonlarni talab etadi. Ikkinchidan, hunarmandchilik mehnat madaniyatini shakllantiradi. O‘quvchi jarayon davomida aniqlik, sabr-toqat, mas‘uliyat, tartibliqlik kabi sifatlarini egallaydi.

Bundan tashqari, hunarmandchilik faoliyati iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Mahsulot tayyorlash jarayonida o‘quvchi xarajatlar, tannarx, foyda, narx belgilash kabi iqtisodiy tushunchalar bilan bevosita ishlaydi. Bu esa iqtisodiy bilimlarning real faoliyat bilan integratsiyasini ta‘minlaydi.

Pedagogik mexanizmlar.

Milliy hunarmandchilik asosida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1. Motivatsion mexanizm. O‘quvchida faoliyatga qiziqish uyg‘otish, uning ichki ehtiyojlarini rag‘batlantirish pedagogik jarayonning boshlang‘ich nuqtasidir. Hunarmandchilikning milliy, estetik va ijodiy jihatlari motivatsiyani tabiiy ravishda kuchaytiradi.

2. Kognitiv mexanizm. O‘quvchilarga iqtisodiy tushunchalar, biznes jarayonlari, marketing asoslari hunarmandchilik faoliyati bilan bog‘liq holda tushuntiriladi.

3. Faoliyat mexanizmi. O‘quvchilar mahsulot yaratadi, xarajatlarni hisoblaydi, narx belgilaydi, taqdimot o‘tkazadi.

4. Refleksiv mexanizm. O‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi, takomillashtirish yo‘llarini izlaydi.

Iqtisodiy hisob-kitob elementlari

Hunarmandchilik faoliyatida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Tannarx:

$$T = X_m + X_i + X_q$$

T – tannarx

X_m – material xarajatlari

X_i – mehnat xarajatlari (labor)

X_q – boshqa (overhead) xarajatlar

Narx:

$$N = T + (T \times r)$$

Bu yerda:

N – sotish narxi

T – tannarx

r – foyda normasi (rentabellik koeffitsienti)


Foyda:

$$F = N - T$$

Bu yerda:

F – foyda
 N – narx
 T – tannarx

Bu formulalar o'quvchilarda matematik va iqtisodiy tafakkurning integratsiyasini ta'minlaydi.



1-diagramma. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotining tannarx tuzilmasi

Mazkur diagrammada o'quvchilar tomonidan tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotining tannarx tuzilmasi aks ettirilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra xarajatlarning 50% materiallarga, 30% mehnat xarajatlariga, 10% energiya sarfiga va 10% qo'shimcha xarajatlarga to'g'ri kelgan. Ushbu faoliyat o'quvchilarda iqtisodiy savodxonlik, resurslarni boshqarish va xarajatlarni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Baholash va diagnostika

3-jadval.

Tadbirkorlik kompetensiyasi quyidagi mezonlar asosida baholanishi.

Ko'rsatkich	Past	O'rta	Yuqori
Kreativlik	Tayyor namunani ko'chiradi	Qisman modifikatsiya	Original dizayn
Iqtisodiy savodxonlik	Hisob-kitob qila olmaydi	O'qituvchi yordamida	Mustaqil hisoblaydi
Tashabbuskorlik	Passiv	Qisman faol	Faol lider

Baholash jarayoni test, kuzatuv, portfolio va loyiha natijalari orqali amalga oshiriladi.

Milliy hunarmandchilik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. O'quvchilarning iqtisodiy tushunchalarni anglash darajasi oshadi, kreativ mahsulotlar yaratish faollashadi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Eng muhimi, o'quvchida o'z mehnati natijasiga nisbatan mas'uliyat va ishonch shakllanadi.

Milliy hunarmandchilik asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish:

- shaxs rivojiga kompleks ta'sir ko'rsatadi
- bilim va amaliyotni integratsiyalaydi
- iqtisodiy tafakkurni rivojlantiradi
- kasbiy orientatsiyani kuchaytiradi

Mazkur yondashuv ta'lim samaradorligini oshiruvchi innovatsion pedagogik model sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva K.T. Technological education in the processes of directing students to the profession and business activities // *Ekonomika i sotsium.* – 2024. – № 11-1 (126). – B. 11–20.
2. Abdullayeva K.T. Innovatsionnaya strategiya – tsentralnoe zveno strategicheskogo upravleniya innovatsionnoy deyatelnost'yu sovremennoy organizatsii // *Sotsial'no-ekonomicheskoe razvitie Rossii: problemy, tendentsii, perspektivy.* – 2023. – B. 9–11.
3. Abdullayeva K.T. K voprosu o sushchnosti innovatsiy // *Budushchee nauki: vzglyad molodykh uchennykh na innovatsionnoe razvitie obshchestva.* – 2023. – B. 10–12.
4. Abdullayeva K.T. Innovatsionnyy potentsial predpriyatiy stroitel'nogo kompleksa Rossiyskoy Federatsii // *Aktual'nye problemy nauki i tekhniki.* – 2023. – B. 49–55.
5. Abdullayeva K. Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo'llashning umumiy mezonlari // *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali.* – B. 674–384.
6. Abdullayeva K.T. va boshq. Tselenapravlenyy vospitanie i organizovanny protsess formirovaniya lichnosti // *Academic Research in Educational Sciences.* – 2022. – T. 3. – № 1. – B. 142–149.
7. Babayeva A. va boshq. Factors forming soil combinations and comparative geographical approaches to the study of soil cover structure. – 2023.
8. Ishmuradova G.I. va boshq. O roli professional'noy pedagogiki v tekhnicheskikh vuzakh: dissertatsiya. – BarGU, 2021.
9. Samatova Sh.Yu., Abdullayeva K.T. Tekhniko-ekonomicheskie pokazateli po vnedreniyu novoy tekhnologii IOMS v vodogreynykh kotlakh // *Molodoy uchenyy.* – 2015. – № 4. – B. 248–249.
10. Samatova Sh.Yu., Abdullayeva K.T. Izmenenie gidrodinamiki parovogo kotla BKZ-75/39 i rekonstruktsiya khvostovykh poverkhnostey nagreva // *Molodoy uchenyy.* – 2017. – № 3. – B. 156–158.
11. Tursunovna A.K. Practical significance of methods of innovative development of students' technical creativity // *Modern Education and Development.* – 2026. – T. 43. – № 1. – B. 409–414.
12. Tursunovna A.K., Qizi R.N.Q., Qizi Y.K. Kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodlari orqali samaradorligini oshirish // *Ta'lim fidoyilari.* – 2022. – T. 3. – B. 44–50.
13. Tursunovna A.K. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini xalq hunarmandchiligi asosida mehnatga tayyorlash // *International Journal of Integrated Sciences.* – 2025. – T. 1. – № 1.
14. Vardiyashvili A.A. va boshq. Energoberezhenie i energoeffektivnost' v sistemakh parosnabzheniya // *Materialy II Mezhdunarodnoy nauchnoy konferentsii "Tekhnicheskie nauki: problemy i perspektivy".* – 2014. – B. 53–55.
15. Vardiyashvili A.A., Karimova S.E., Abdullayeva K.T. Voprosy opresneniya mineralizovannykh vod s ispol'zovaniem energeticheskikh otkhodov i solnechnoy energii // *Molodoy uchenyy.* – 2019. – № 20. – B. 86–88.